

## FARZANDLARNI TARBIYALASHDA ISLOM DINIDAGI AXLOQ ME’YORLARINING O’RNI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14545011>

Toshboltayeva Sarvinoz

Alfraganus universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Musametov Bahodir

Alfraganus university

Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada farzandlarni tarbiyalashda muqaddas dinimizda kelgan hadis va hikmatli o’gitlar, hozirgi zamonomizda farzand tarbiyasi nechog’lik muhim ekanligi, farzand tarbiyasiga jiddiy yondashishimiz kerakligi hamda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, Prezidentimiz farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari aytib o’tilgan.

**Kalit so’zlar.** Payg’ambar, hadis, rivoyat, oila, farzand tarbiyasi, mehribonlik uylari, Prezident qarorlari, yetimlik.

Diyorimizda oila ma’naviyati va madaniyati asrlar davomida o’ziga xos tarzda shakllangan. Vatanga, ota-onaga sodiqlik va fidoyilik o’z-o’zidan paydo bo’lmaydi.

Bular zaminida yoshlarga oilada, ta’lim maskanlarida, mahallalarda beriladigan ta’lim tarbiya yotadi.

Shuning bilan birgalikda farzand tarbiyasidagi eng muhim omil bu – ota-onsa tarbiyasi, ularning farzandiga qilgan e’tiboridir. Xalqimizda “Qush uyasida ko’rganini qiladi”, degan maqol bejiz aytilmagan.

Serfarzandlik va bolajonlik; kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat; erkaklarning oiladagi yuqori mavqeい, oila va nikohning muqaddasligiga e’tiqod; ota-onalarning farzandlar oldidagi hamda farzandlarning ota-onalar oldidagi burch va mas’uliyatining muhim qadriyat sifatida e’tirof etilishi; oila sha’ni va obro’sining avaylab asralishi; kelin va qaynona munosabatlarining o’ziga xosligi; katta oilalarda bobo va buvilarning rahnamoligi; qarindoshlar, qo’ni – qo’shnilar, mahalla – ko’y oldidagi majburiyatini teran his qilish kabi o’zbek oilasiga xos bunday xususiyatlar zamirida dinimiz ta’limotlari yotadi. Payg’ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) otaning farzandiga qiladigan moddiy ta’midotidan ma’naviy ta’moti ustun turishini ta’kidlab shunday marhamat qilganlar: “Hech bir ota o’z farzandiga go’zal odobdan ham ortiqroq hadya bera olmaydi” (Termiziyy rivoyati).

Dunyoda ota-onalari eng ulug’ zotlar hisoblanadi. Chunki ular o’z farzandlari uchun hayotini, mehrini bag’ishlaydi. Farzandi katta bo’lib, oila qurib ketgandan keyin ham u haqda qayg’urishdan to’xtamaydi.

Ota-onalari farzandi dunyoga kelishi bilan uni parvarish qilib, katta qiladi, kasal bo’lsa, davolaydi, yediradi, kiydiradi, uni oq yuvib, oq taraydi. Umuman, farzandini hayotda kerakli barcha narsalar bilan ta’minlashga harakat qiladi. Hatto buning uchun o’zlari yeyish-ichish, kiyinish va shu kabi narsalardan mahrum bo’lsalar yoki kechalari uyqudan qolsalar ham.

Bugun yoshlarimiz baxtli, chunki ularning ota-onalari boshida, ular uchun kerakli narsalarni ortig’i bilan olib bermoqda. To’g’ri, bu ishlar ota-onaning farzand oldidagi asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Afsuski, ba’zi ota-onalar o’zlarining vazifalari faqat shu deb o’ylashadi. Holbuki, bulardan ham muhim, bulardan ham qiyin va bulardan ham asosiy vazifa ham bor, bu farzandning ma’naviy-axloqiy tarbiyasidir.

Donishmandlar bola tarbiyasiga u hali homila holda ekanidayoq kirishishni maslahat berishadi. Bunga qanday erishish mumkin? Tug’ilajak farzandning kelgusida yaxshi tarbiyali, odobli, e’tiqodli, chin inson bo’lib kamolga yetishishida katta foydasi bor. Hatto zamona tibbiyot ham ona homiladorlik chog’ida ko’proq qanday kayfiyatda bo’lsa, bularning hammasi bolaga ham ko’chishini isbotlagan. Masalan, homiladorlik chog’ida ko’p asabiylashgan, boshiga biror g’am, musibat tushgan ayollarning farzandlari injiq, serzarda, yig’loqi bo’lib tug’ilishi ko’p marta kuzatilgan.

Bir kishi hazrati Umar r.a.ning xuziriga kelib “Men o’g’limni oq qildim” dedi. Hazrati Umar o’g’ilga qarab “otanga oq bo’lishda Allohdan qo’rqmaysanmi?” dedi. O’g’il aytdiki “ey mo’minlarni amiri! O’g’ilni otadagi haqqi yo’qmi?” deb so’raganida hazrati Umar otadagi haqlari “avvalo yomon xotinga uylanmaslik, shu bilan farzand ayblanmasligi uchun ismini yaxshi qo’ymoqligi, va yaxshi tarbiya bermoqligidir” deb aytdilar. O’g’il “Allohga qasamki otam onamni tanlab olmagan, u majusiy edi, uni 400 dirhamga sotib olgan. Ismimni chiroyli qo’ymadi. Menga judol (ko’rshapalak erkagini ismi shunaqa bo’ladi) deb ism qo’yan. Allohnini oyatlaridan birortasini ham o’rgatmagan” deb shikoyat qilganda, hazrat Umar uning otasiga qarab “o’g’limni oq qildim deysan u seni oqqilibdiku” deb oldilaridan chiqarib yuborgan ekanlar.

Abu Hurayra r.a Payg’ambarimiz (sav)dan rivoyat qiladilar: otaning o’g’ilidagi haqqi uchtadir. Tug’ulsa yaxshi ism qo’yish, aqli yetsa qur’onni o’rgatish, balog’atga yetsa uylantirish”.

Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan «Mehribonlik uyi to’g’risida»gi Nizomning 2 bandiga ko’ra Mehribonlik uyi yetim bolalar va ota onasining qarovisiz

qolgan bolalar uchun davlat tarbiya muassasidir. Afsuski hozirgi kunda Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bilalarning hammasi ham chin yetim yok iota onasining qarovsiz qolgan bolalar emas.

Yaqinda Oliy sud tomonidan batcha viloyatlarning Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning ota onalari, boba buvi va yaqin qarindoshlari o’rtasida targ’ibot ishlari olib borildi. Ushbu jarayonda bu maskanlarda tarbiyalanuvchilarning 80 foizdan ortig’ining ota onasi borligi ayon bo’ldi.

Misol uchun, Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanida joylashgan 4 sonli Mehribonlik uyidagi 108 nafar tarbiyalanuvchining faqat 15 nafari chin yetim ekan. Qolgan 84 nafar bolaning ota onasi, 9 nafarining esa boba buvilari ham borligi aniqlandi.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalar uchun davlat tomonidan barcha shart sharoitlar va qulayliklar yaratib berilgan. Lekin ana shu jajji bolakaylardan har birining tiliga chiqmasada dilining tubida yotgan, ko’zlarida qalqib turgan bir otli armonni ham payqamaslik mumkin emas. Yani ularga hammasidan muhimi ota ona mehridir. Ular doim ota onasini kutib o’z uyida, tug’ishganlar bag’rida yashashni xohlaydi.

Har biro dam o’z hayotidan nolimaslik kerak hatto qiyalsalisa ham. Shukur qilib yashasa hamma narsa bo’ladi. Nima niyati bo’lsa duo qilib yursa o’sha niyatiga yetadi. Masalan o’qishga kirish va ota onasini hursand qilishdir. Farzand burchi o’qish va ilm olishdir. Keyin esa o’qishga kirish va ota onasini boqishdir.

Sabr sabrning tagi sariq oltin deyishadi, bobolariimiz sabr qilib yashasa hamma harsa bo’ladi. Sabr qilmsa hech narsa bo’lmaydi.

Bazi odamlar o’z farzandini mehribonlik uyiga tashlab ketishadi. O’sha mehribonlik uyidagi bolalar esa ota onaga zordir. O’sha bolalar esa kelajakda zo’r farzand bo’lishar edi. Biz shukur qilib yashasak agar butun dunyo o’zgarib ketadi. O’sha bolalar uyidagi bolalarni oa onasi ko’z qiymasdan qanday qilib tashlab ketishar ekan. Bazilari nogiron bo’lish mumkindir. O’sha bolalarni boqsa ota onalari orzu qilgan farzandi bo’lar. Bolalar uyidgi bolaalar go’dakdir. Ular ham odam-ku.

Qanday qilib etimxonaga tashlab ketar ekan. Bazi odamlar esa farzandga zordir. O’sha etimxonadagi bolalarni ota onasi narigi dunyoda qanday qilib javob berar ekan.

Ular tug’ishadi keyin esa yetim xonaga tashlab ketishadi. Eng qiyini yetim xonadagi bolalarga qiyin ota onasini kutib kutib yashaydi. Nimaga ular shiringina bolalarku. Kimdirlarni ota onasi o’lgandir lekin qarindoshlari borku. Ularni o’z bolalari bilan katta qilishsa bo’lmaydimi.

Mehribonlik uyidagi bolalar esa faqatgina mehrga zordir. Mehribonlik uyidagi bolalar shiringina bolalar-ku.

Prezidentimiz yetimxonadagi bolalarga yahsi sharoitlar qilib bermoqda. Lekin ota onasi abort qiladi.

Yetimxonadagi bolalr nima qilishdi ularga. Yetimxonadagi bolalar huddi bizdek sharoitda yasharmikan qo’limda pulim bo’lsa ularga yordam bergen bo’lardim.

Ularni boqib olgan bo’lardim. Ota onasini hafa qilgan bo’lsa tashlab ketganda.

Yetimxonadagi bolalar ota onaga zor chunki ularni hech kimi yo’q. yana necha yil o’tib ularni olib ketadi. Tashlab ketmasdan bir umr boqsa yahshi inson bo’ladi. Keyin mehrga ham zor. O’sha bolalarni ota onasiga insof bersin. O’sha bolalar nima qilishgan ota onasiga. Yosh ayollar nikohsiz homilador bo’lishadi keyin esa ular tug’ishadi o’sha bolalarni esa mehribonlik uyiga tashlab ketishadi. Onalari esa uchta qiz bo’lsa to’rtinchisi ham qiz bo’lsa tug’ib mehribonlik uyiga tashlab ketadi. Qiz bola narigi dunyida ota onasini jannatga olib boradiku.

Ayrim yosh qizlar o’qishga kelib bolali bo’lib qolishadi va u Bolani abort qilib yuborishadi. E xudoyim ota onasi qanday qilib tashlab ketishadi. Qanday qilib ko’zi qiyib tashlab ketgan ekan-a. Ular ham odam-ku ota onasini boquvchisidir. Mehribonlik uyidagi bolalar esa o’qishga kirsa ota onasi hursand bo’ladiku. Ota onalari buni o’ylamasdan tashlab ketgan. Yoki nogiron bo’lsa o’shani uchun tashlab ketish kerakmidi.

Bazi ota onalar menga kerak emas deb boshqa davlatga ketadi.onasi esa boqolmasdan mehribonlik uyiga tashlab ketishadi. Bir kun kelib o’sha yetimxonadagi bolalar katta bo’lishadi. Keyin o’qishga kirishadi ota onasini so’raydi yetimxonada ishlaydigan bog’cha opalar ularga qanday qilib javob berishadi.

Ota onalar yosh qizlarni o’g’il bolalarni aqli zaif bo’lsa jinnihonaga yoki mehribonlik uyiga tashlab ketadi. Ollohim peshonasiga yozib qoyibdida. Bazida 12 13 yoshdagи bolalarni ota onasi sen menga kerakmassan deb tashlab ketishadi. Bolalarni tashlab ketib ulardan habar olmaydi shuning uchun o’sha bolalar ota onam o’lgan deyishadi. Keyin esa bolalar mehribonlik uyiga borishga rozi bo’lishadi. Masalan bir qizni misol qilib olsak ota onasi tashlab ketgan ular qanaqa ota onadir. Otasi o’lgandir lekin onasi borku boqib yashasa bo’ladiku. Yetimxonadagi bolalar kuchli mehribindir. Bazi onalar eri bo’lsa ham uyiga erkaklarni olib kelib o’sha erkaklardan bolali bo’lib qoladi. U bolalarni tug’ib yetimxonaga tashlab ketadi.

Bazi bolalarni ota onasi tirik bol’sa nega buvisiga tashlab ketadi. Yosh bo’lib turib mакtabга bormasdan yetimxonaga tashlab ketishadi. Ota onasini qancha kutishadi.

Muhammad Yusuf sheri

Tongim kulgu edi

Shomim xavotir

Dunyoda nima gap deya bo’ylayman

Atomlar asrida kun bo’yi shod yurmadin

Juda katta bir baxtligin o’ylayman

O’qigani kelgan bazi qizlar xar xil bolalar bolan yurib bolali bo’lib qoladi. Lekin o’sha bollar esa meni bolam emas deb tan olmaydi. Natijada o’sha qizlar tug’ishdi va bolalarini mehribonlik uyiga,yetimxonalarga yoki tug’riqhonani o’ziga bazilari esa ko’cha va domlarni tagiga yoki bo’lmasa dalalarga tashlab ketishadi. Ota onalarni qilgan gunohiga mehribonlik uyidagi bolalar javob berishi kerakmi. Nega sabab nimada o’sha yerda ham maktablar bormikin. Yurtimizda yahshi odamlar borku. Yetim bolalarni boshini silasa ko’p savob oladi-ku. Bu dunyo qaytar dunyoku o’sha bolalardan qaytmasa ollohdan qaytsin. Boshqa birov osha Bolani boqib olsa o’zini farzandlari bilan katta bo’lsa keyin ancha vaqt o’tib o’sha ayilni bollalari sen yetimsan dasa ko’ngli og’rib qoladi. Maktabdagisi sinfdoshlari ota onang bormi desa qanday qilib javob berishadi.

Eng alam qilgani bu ota onasi tashlab ketishdir. Yetimxonadagilar esa o’z ota onasini kutib yashaydi.

Ularni bittayu bitta armoni bu ota onansini bag’rida yashashdir. Onam qachon olib ketar ekan deyishadi. Lekin u bolalar u bolalar hech kimga kerak emasman deyishadi.

Agar o’sha bolalarni ota onalari boqishsa Yurtimiz rivijiga hissa qo’shadigan farzandlar bo’lishadi-ku.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Po’Latov, S. N. M. (2020). Hindistonda pedagogic ta’limining rivojlanish bosqichlari. Scienceand Education, 1(Special Issue 1), 21-26.
2. Polatov, S. N. (2020). XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA HINDISTONDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT. Academic Research In Educational Sciences, (4), 468-474.
3. Po’Latov, S. N. M. (2021). MAHATMA GANDI FALSAFIY QARASHLARIDA “MUTLOQ G ‘OYA” TUSHUNCHASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 1134-1143.
4. Po’Latov, S. N. M. (2020). Rabindranat tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo’shgan hissasi. Scienceand Education, 1(Special Issue 1), 136-143.
5. Пулатов, Ш. Н. (2022). МАХАТМА ГАНДИ ФАЛСАФИЙ КОНЦЕПЦИЯСИДА “САТЯГРАХА” ТУШУНЧАСИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 23), 890-896.
6. Pulatov, S. N. M. (2022). AHIMSA TUSHUNCHASINING FALSAFIY MOHIYATI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 1), 162-166.

7. Po‘Latov, S. N. M. (2022). MAHATMA GANDINING INSON TABIATI HAQIDAGI QARASHLARI. Academic research in educational sciences, 3(3), 10-19.
8. Pulatov Sh.N. The Concept of “Truth” in the Philosophical Views of Mahatma Gandhi// Akshara Multidisciplinary Research Journal Peer-Reviewed & Refereed International Research Journal, India // E-ISSN: 2582-5429 Vol.02 Issue V, 2021. –P. 12-18.
9. Пулатов, Ш. (2019). Философская концепция Махатмы Ганди. Востоковедения, 3(3), 214–224. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/oriental-studies/article/view/15683>
10. Po’latovSh.N. Jaynizm diniy-falsafiy ta’limoti. 16-son Sharqshunsolar anjumani. Toshkent davlat sharqshunsolik universiteti, 2020 307-312.
11. Po’latovSh.N. Mahatma Gandhi diniy qarashlarining tahlili. НамДУ илмий ахборотномаси. 2021 у. 8-сон. 205-212 б.
12. Пўлатов, Ш. Н. (2023). ҲИНД ФАЛСАФАСИДАГИ ИНСОН МАСАЛАСИНИНГ МАҲАТМА ГАНДИ ҚАРАШЛАРИГА ТАСИРИ. International scientific journal of Biruni, 2(3), 96-103.